Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Nurmanov Sherzod Xujayarovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrasi assistenti

Tursunov Alpomish Amanovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti talabasi

Yo'ldoshev Raxim Nuriddin o'g'li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: Bu ilmiy maqolada chorvachilik tarmoqlarida otchilik infratuzilmäsining hozirgi holati va istiqboldagi iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari, SamDVMChBU Zoojnjeriya fakulteti, q.x.f.d., professor Xolmirzayev D.X.ning va boshqa mualliflarning ilmiy-izlanishlari ma'lumotlari, xorij mamlakatlari, otlarni urushdagi, sportdagi, ko'pkaridagi, harbiylardagi, oziq-ovqat sanoatidagi o'rni, shu sohaga kiritilayotgan investitsiyalar, iqtisodiy samaradorlik natijalari, xulosa va takliflar, foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Kalit so'zlar: yilqi, ot, Qorabayir, sport, harbiy, oziq-ovqat sanoati, qazi, qimiz, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.

Abstract: In this scientific article, the current state of the horse breeding infrastructure in the livestock industry and the possibilities of improving its economic efficiency in the future, the information of the scientific researches of the Faculty of Zoology of SamDVMChBU, PhD, Professor Kholmirzaev D.Kh. and other authors, foreign countries, horses in war, its role in sports, mass media, military, food industry, investments in this field, results of economic efficiency, conclusions and proposals, a list of used literature is given.

Key words: horse, Karabayr, sports, military, food industry, gas industry, economic efficiency indicators.

Аннотация: В данной научной статье рассмотрено современное состояние инфраструктуры коневодства в отрасли животноводства и возможности повышения ее экономической эффективности в будущем, научные исследования профессора Холмирзаева Д.Х., зоологического факультета СамДВМЧБУ, к.ф.н.Д. приведено место в пищевой промышленности, инвестиции в эту сферу, результаты экономической эффективности, выводы и предложения, список использованной литературы.

Ключевые слова: лошадь, Карабайр, спорт, военное дело, пищевая промышленность, газовая промышленность, показатели экономической эффективности.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turini ommalashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 11-mart, PQ-5024-son qarorida mamlakatimizda mahalliy zotdor otlarni ko'paytirish, zamonaviy sport turini ommalashtirish, sohaga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida: mamlakatda ot sportini hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turlarini aholi o'rtaida eng ommaviy sport turlaridan biriga aylantirish, iqtidorli yoshlarni tanlash, saralab olish (seleksiya) va ularni professional sportchilar sifatida tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, professional trenerlar, hakamlarni tayyorlash, o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish, ot sportining ilmiy-metodologik bazasini yanada kuchaytirish, ot sporti hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turlari bilan shug'ullanish uchun zarur moddiy-texnik baza va infratuzilmani shakllantirish, shu jumladan, ot sporti klublari faoliyatini rivojlantirish, terma jamoalar uchun o'quv-mashq jarayonini samarali tashkil etish, sof zotdor otlarni urchitish va ko'paytirish, yosh otlar rivojlanishi va o'sishini, yaylov va yem-ozuqa bazasini mustahkamlash, yilqichilik fermalarida qimiz ishlab chiqarishni, intensiv va bo'rdoqichilagini tashkil etish va otlardan olingan mahsulotlar turlarini kengaytirish uchun belgilangan tartibda yer maydonlari ajratish, ot sportiga ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar hamda respublika oliy sport mahorati maktablarida noyob zotdor sport otlarini ko'paytirish uchun Davlat budgetidan uch yil davomida 5 milliard so'mgacha mablag' ajratish va ustuvor ravishda respublika ot zavodlarida ko'paytirilgan noyob zotdor sport otlari hisobidan ta'minlashni yo'lga qo'yish va boshqa yo'nalishlarni rivojlantirish masalalari ni o'z ichiga oldi.

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi hamda O'zbekiston yilqichilik va ot sporti federatsiyasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 18-fevraldag'i PQ-4194-son qaroriga muvofiq tashkil etilishi belgilangan Qorabayir zotli otlarni yetishtirish va ko'paytirish bo'yicha innovatsion seleksiya-genetika markazi negizida O'zbekiston yilqichilik va ot sporti federatsiyasi huzurida "O'zbegim Otlari" MCHJ bilan hamkorlikda davlat-xususiy sheriklik asosida, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan, Naslli, sport va tozaqonli otlarni yetishtirish va ko'paytirish bo'yicha innovatsion seleksiya-genetika markazini tashkil etildi. Investor faoliyat turini o'n yil davomida saqlab turish sharti bilan ajratilgan yer maydoniga kamida 10 mln AQSH dollari, shundan 7 mln AQSH dollari miqdoridagi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobidan kamida 150 o'rinci 3 yul-duzli mehmonxona, davolash-sog'lomlashtirish muassasalari, sport va zotli otlar uchun mo'ljallangan veterinariya klinikasi, maishiy xizmat ko'rsatish, avtotransport vositalari turar joylari, savdo-ko'ngilochar va boshqa dam olish infratuzilma obyektlarini barpo etish kuzda tutildi. 150 tadan ortiq yangi ish o'rnlari yaratildi. O'zbekiston yilqichilik va ot sporti federatsiyasi a'zosi hisoblangan nodavlat ot zavodlari (majmualari), klublari, makkablar (muassasalar) har yili xorijdan quyidagi taqsimotga asosan naslli, sport va tozaqonli otlar olib kelish orqali doimiy ravishda zotdor otlar sonini ko'paytirish choralarini ko'rishi belgilandi. Bunda mavjud ot boshi 50 tagacha bo'lsa – 2 ta ot, 50 dan 100 tagacha bo'lsa – 3 ta ot, 100 dan 400 tagacha bo'lsa – 4 ta ot va 400 dan ko'p bo'lsa – 5 taga ot ko'payishi aytilgan.

Bulardan tashqari 2025-yilning 1-yanvariga qadar: O'zbekiston yilqichilik va ot sporti federatsiyasi hamda uning a'zolari mol-mulk, yer solig'i va qishloq xo'jaligi yerlari uchun yer solig'idan; ippodromlar, ot sporti klublari va sport maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun olib kelinadigan, respublikamizda ishlab chiqarilmaydigan inventarlar, sport otlari, naslli mahsulotlar (materiallar), ozuqalar, veterinariya dori vositalari va ozuqabop qo'shimchalar, vitaminlar, uskunalar va materiallar belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatga muvofiq bojxona to'lovlaridan (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona yig'imidan tashqari) ozod etilgan.

Metodlar. monografik, statistik, taqqoslash va boshqa usullar yordamida tahlil qilganmiz.

TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

O'rta Osiyo xalqlari yilqichilik va ot o'rchipchilik bilan bir necha asrlar ilgariyoq shug'ullanganlar. O'stirilgan otlar xorij mamlakatlarda ham qadrlangan. Hozirgi O'zbekiston va Turkmaniston yerlarida yetishtirilgan ot zotlari haqidagi ma'lumotlarni Gerodot, Strabon va boshqa tarixchilarning asarlarida uchratish mumkin. Yilqichilik xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega. Otlarning eng asosiy mahsuldarligi ularning ish layoqati bilan baholanadi. Sut, go'sht, teri va boshqalar esa ulardan olinadigan qo'shimcha mahsulotlardir. Qorabayir Markazi Osiyo, jumladan, O'zbekistondagi asosiy mahalliy ot zotidir. Bu otdan salt minish, aravaga qo'shish, yuk tashish, harbiy ishlarda, qishloq xo'jaligida yordamchi ishlarni bajarishda, yer haydash, sport musobaqlari (ayniqsa ko'pkari)da va go'sht-sut ishlab chiqarishda, undan qazi tayyorlashda ko'p foydalilanib kelinadi. O'zbekistonda "Ravot" (Jizzax viloyati), "Hisor" (Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani), Navoiy nomidagi (Toshkent viloyati Oxangaron tumani) ot zavodlari, "Pangat" naslchilik xo'jaligi (Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani), 12 ta naslchilik fermalari va 4 ta mahsulot ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar mavjud. Ot zavodlari respublika ot sporti



maktablarini ot bilan ta'minlaydi, shuningdek, har yili respublika xo'jaliklari va chet ellarga 400 dan ortiq nasldor hamda sport otlari yetkazib beradi. Yaxshi parvarishlaganda har 100 bosh biyadan 100 tagacha qulun olish mumkin. Ot go'ngi yuqori sifatli parxez xususiyatiga ega. Biya sutidan shifobaxsh qimiz tayyorlanadi.

Yilqichilik chorvachilikning muhim sohasi bo'lib, texnikaning rivojlanishiga qaramasdan hozirgi kunda ham xalq xo'jaligida o'z o'rnni yo'qotgan emas. Aholini noyob taomlar (go'sht) sut (qimiz) hamda yengil sanoatni teri, sil kasalliklarni oldini olish uchun qonidan preparatlar va boshqa xom ashyo bilan ta'minlaydi. Otda yurish insonga estetik rohat bag'ishlaydi va sog'ligini mustahkamlaydi. Tarixdan ma'lumki, kishilarning yuksak ma'daniyati va taraqqiyot cho'qqilariga erishishda ot insonga ishonchli yo'ldosh, ko'makdosh bo'lgan odamlarning og'irini, mushkulini oson qilishda otning alohida o'rni bor.

Hozirgi vaqtida yilqichilik klasterlari tashkil etilmoqda O'zbekiston Respublikamizda bugungi kunda jami 800 dan ziyod klasterterlar tashkil etilgan bo'lib, respublikada 15 ta yilqichilik klasterlari tashkil etilmoqda. Birgina Samarqand viloyatida 44 ta klaster faoliyat yurityapti, jumladan, meva-sabzavotchilik sohasida 16 ta, g'al-lachilik sohasida 12 ta, yilqichilikda 1 ta. Yildan yilga klasterlar soni oshib hamda ular faoliyati takomillashtirilib borilmoqda. Ayrim mamlakatlar misolida aytadigan bo'lsak, Amerika Qo'shma Shtatlarining mehnatga yaroqli aholisini 78-84 foizi xizmat (infratuzilma) sohasida mehnat qilar ekan. O'zbekistonda esa 24-45 foiz mehnatga yaroqli aholimiz infratuzilma sohasida banddir. Band bo'lмаган aholimiz oldinlar 34 foiz bo'lsa, keyingi vaqtida 16-17 foizdan 13 foizga tushgan. Samarqand viloyatida esa 9 foizga tushdi. Bu raqamni yanada kamaytirishda sohalar yo'nalishida klasterlarni mahalliy va xorijiy tajribalarni o'rgangan holda aholiga to'g'ri va to'liq ma'lumotlarni ular ongiga singdirgan holda tashkil qilish natijasida yuqorida aytigan muammolarni hal qilish mumkin bo'ladi. Mamlakatdagi muammolarni hal qilish ko'p hollarda adolatlari rahbar kadrlarga bog'liqdir.

Dunyo bo'yicha otlari ko'p mamlakat Xitoy Xalq Respublikasi bo'lib, u mamlakatda 9 million boshdan ortiq ot mavjuddir. Bu dunyo mamlakatlardagi hisoblangan otlarni 15,6 foizini tashkil etmoqda, Ot go'shti ishlab chiqrish bo'yicha Meksika mamlakatida 80 ming tonnadan ortiq ot go'shti yetishtirilmoqda. Agar Xitoy, Braziliya, Meksika, AQSH, Argentina, Mongoliya, Kolumbiya, Qozog'iston, Rossiya mamlakatlardagi ot go'shti yetishtirishni 100 foiz deb olsak, shuni 14 foizdan ortig'i Meksika davlatiga, 13 foizdan ortig'i Xitoy Xalq Respublikasiga, 11,6 foizi Qozog'iston davlatiga to'g'ri keladi. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan jami go'shtning 0,7 foizi, jumladan, Navoiy viloyatida 1,1 foizi, Samarqand viloyatida esa 0,3 foizini ot go'shti tashkil etmoqda.

Aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash borasida Prezident o'tkazgan videoselektorda "Klasterlar faoliyatini yo'lda qo'yishdan asosiy maqsad – eksport hajmini oshirish. Buning uchun esa yangi bozorlarni topish kerak. Bozor bo'lmasa, eksport ham bo'lmaydi, klaster tizimi ham yurmaydi. Shuning uchun chet ellardagi talabni muntazam o'rganib, imkoniyatlardan samarali foydalanish, eksportda izchillikni ta'minlash kerak, – degan edi, Prezident Sh.Mirziyoyev. Bu mas'uliyatli vazifa yangidan tashkil topgan ixtisoslashgan yilqichilik xo'jaliklari faoliyatini tubdan yaxshilashni taqozo etadi. Yilqichilik chorvachilikning zaruriy yo'nalishi bo'lib, texnikaning rivojlanishiga qaramasdan hozirgi kunda ham xalq xo'jaligida o'z o'rnni yo'qotgan emas. Aholini noyob taomlar (go'sht) sut (qimiz) hamda yengil sanoatni teri, sil kasalliklarni oldini olish uchun qonidan preparatlar va boshqa xom ashyo bilan ta'minlaydi. Otda yurish insonga estetik rohat bag'ishlaydi va sog'ligini mustahkamlaydi. Bu afzaliklar quyidagilardan iborat:

1. Ot sportini tashkil etish mahalliy va xalqaro musoboqlara qatnashish imkoniyatini yaratadi.
2. Otlar tabiiy ozuqa manbalari yaylovlardan keng foydalanish tufayli, iqtisodiy qimmatroq bo'lgan yoqilg'i moylash vositalari bilan harakatlanuvchi tranport vositalaridan muhim afzallikkarga ega.
3. Ottardan foydalanilganda xo'jaliklarga qimmat ehtiyoj qismlar sotib olish xarajatlaridan qutuladi.
4. Otlar soni ko'payish imkoniyatiga ega bo'lganligi sababli fermerlarga, dehqon, shaxsiy tomorqa egalari, klasterlarga va boshqa xo'jaliklarga hamda korxonalarga qo'shimcha daromad beradi.
5. Otlar yilning barcha fasllarida, har qanday relyefli sharoitlarda, qaysiki traktor va avtomashinalar ishlashi juda qiyin bo'lgan joylarda ham bemalol ishlatalidi.
6. Ba'zi otlarni go'shtga topshirish hisobidan oziq-ovqat rejasini bajarishga salmoqli ulush qo'shadi.
7. Otlar kichik yer maydonlari, tomorqalarda ishlov berishda juda qulaydir.
8. Eksport uchun tayyorlangan otlarni jahon bozoriga chiqarish, xorij valyutasiga sotish va tushgan mablag'ni klaster yoki otsilik xo'jaliklari hisobiga tushirish yo'li jamg'arish imkonini beradi.

Ozuqalarni yig'ishda, klasterlarda, fermalarda ozuqalarni tarqatishda transport sifatida "Buyurtma stol" lari tizimida foydalanish katta ahamiyatga ega. Ko'pchilik xo'jaliklarga yaqin masofalarga yuk tashish, kichik-kichik uchastkalarga yer haydash, shaxsiy tomorqalarga ishlov berish yaylovlarda mol boqish, tog'liklarda, botqoqliklarda, dalachilik subyektlarida va o'rmon xo'jaliklari dagi ishlarni ot kuchi bilan bajarish mashina bilan bajarishga qaraganda iqtisodiy jihatdan ancha arzonga tushadi.

Iqtisodiy tahlillarimiz natijalarini keltirsak, ular quyidacha bo'ldi: 2022-yil yakuni bilan chorvachilikda eng yuqori ko'rsatkich Samarqand viloyatidagi chorvachilik tarmoqlarining baliqchilik yo'nalishida bo'lib, 16 627 tonna yalpi mahsulotlindi, jami xarajatlar esa 336 066 million so'm, jami daromad 438 429 million so'm, olingan foya 102 363 million so'm, rentabellik darajasi 30,0 foiz, 1 tonna baliq mahsulotni yetishtirish uchun 20 212



ming so'm xarajat qilindi, uni sotishdan olingen daromad 26 369 ming so'm bo'ldi. 2022-yil yakuni bilan Samarqand viloyatidagi chorvachilikda yilqichilik tarmog'ida 8,1 tonna jami mahsulot olindi, jami xarajatlar 12,3 million so'm, jami daromad 13,4 million so'm, olingen foyda 1,1 million so'm, rentabellik darajasi 8,9 foiz, 1 tonna mahsulotni yetishtirish uchun 1,5 ming so'm xarajat qilindi, uni sotishdan olingen daromad 1,7 ming so'mni tashkil qildi. 2021-yil yakuni bilan rentabellik darajasi eng yuqori bo'lgani asalarichilik bo'lib, 35,7 foizni tashkil qildi. Rentabellik darajasi 35,7 foiz, 1 tonna mahsulot tannarxi 40 528 ming so'mni, sotilgan 1 tonna tovar uchun pul tushumi 55 000 million so'm, 1 tonna asaldan olingen foyda esa 14 472 so'm bo'ldi [2,4].

Yilqichilikda rentabellik darajasi 8,3 foiz bo'ldi. Umumiy holatni iqtisodiy tahlil qilganimizda, o'simchilik tarmog'i chorvachilik tarmog'iga nisbatan rentabellik darajasi yuqori bo'ldi. 2022-yilning yakuni bilan esa, Samarqand viloyatida eng yuqori ko'rsatkich dukkakli ekinlar bo'lib, bu tarmoq rentabellik darajasi 45,5 foizni, chorvachilikda esa baliqchilik tarmog'ida 30,0 foizni tashkil etdi.

Qishloq xo'jaligi sohasida hosildorlik va mahsuldarlikni, mehnat unumdarligini yanada oshirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillari uchun mo'ljallangan strategiyasi qabul qilindi. Farmonda ishlab chiqarishni diversifikasiya qilish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, sohada ilg'or texnologiyalarni qo'llash bo'yicha qator muhim chora-tadbirlar belgilandi. Investitsiya loyihalari: 2022-yilga klasterlar tomonidan qiymati 478 mlrd. so'mlik 71 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, 500 ga yaqin ish o'rinnari yaratildi.

XULOSALARIMIZ:

- 1) 2022-yilda Samarqand viloyati qishloq xo'jaligida otchilik klasteri rentabellik darajasi 8,9 foizni tashkil qildi;
- 2) Samarqand shahrida markazlashgan Qishloq xo'jalik mahsulotlarini va boshqa tovarlarni "Buyurtma stoli" orqali olib borish yo'lga qo'yilgan edi. Shu mavjudlikni qaytadan takomillashgan holatda tiklash va uning faoliyatini iqtisodiy raqamlashtirish zarur;
- 3) Ayrim tumanlarda mahalliy va xorijiy investorlarni, jumladan, QORABAYIR otlarini ko'paytirish maqsida Turkmanistonning faol tadbirkorlarini bu tarmoqni rivojlantirishga jalb etish, qo'shma dasturlar va qo'shma korxonalar faoliyatini tashkil qilish zarur;
- 4) Yilqichilik tarmog'ida bandlikni ta'minlash va kambag'alchilikni kamaytirish uchun mulkchilikning har turi va shakllarini joriy etish;
- 5) Yurtimiz chorvachiligidagi, jumladan, yilqichilik tarmoqlari bo'yicha katta salohiyatga ega. Biroq bundan to'laqonli foydalanimayapti. Xulosa qilib aytganimizda, tarmoqda menejment va marketing faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, statistik ma'lumotlarning sayozligi, klasterlarda xorijdan katta xarajatlar hisobiga sotib olib keligan chorva, jumladan, oting Qorabayir zotlarini ular uchun tayyorlangan rationlar talab darajasida emasligi, chorva mahsulotlarini qayta ishslash, saqlash va shu kabi jarayonlarda oqsayotganligi eksport jarayoniga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

TAKLIFALARIMIZ:

- 1) Respublikamiz xududlarida chorvachilik tarmoqlarini, jumladan, yilqichilikni rivojlantirishda, asosan qishloqlarda infratuzilma sohasida raqamli iqtisodiyotni joriy etilishi ustidan doimiy ravishda monitoring nazoratini o'rnatish;
- 2) Olim va pedagoglarning ilmiy-amaliy tavsiyalari va ishtirokida markazlashgan "Buyurtma stol"lari ishini asosan uzoq qishloqlarda mukammallashgan holda tashkil etish,
- 3) Buyurtma stollari faoliyatiga raqamli iqtisodiyotni joriy etishda rivojlangan davlatlar bilan qo'shma das-turlar va qo'shma korxonalar tashkil etish maqsadga muvofiq;
- 4) Kambag'allikni kamaytirish va ishsizlikga barham berish uchun joylarda, ayniqsa uzoq qishloqlarda mulkchilikning turli shakllarini hayotga joriy etish;
- 5) Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi "Uchqora" qishlog'ida yilqichilik bilan qiziquvchilar soni ko'p va yigirmadan ortiq chavondozlar mavjud. Ular va yon qishloqdagi chavondozlarni yilqichilik klasterini tashkil etib, ularni birlashtirish hamda respublikada o'tkaziladigan ot o'yinlari tanlovlariда ishtirot etishini ta'minlash;
- 6) Yoshlar bandligini ta'minlashda va kambag'allikni kamaytirishda yilqichilik klasterini tashkil etish chorra-tadbirlarini ko'rish hamda infratuzilma turlarini tashkil etishning iqtisodiy samaradorlikni oshirish-dagi imkoniyatlaridan xorij mamlakatlari bilan qo'shma loyihalari va qo'shma korxonalarni ko'paytirish kerak;



- 7) Mamlakatning barcha yo'nalishlarida shaffoflikni (korrupsiyaga yo'l qo'ymaslikni) amalga oshirish maqsadida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egal-lash dasturini qaytadan tayyorlash va joriy etishini tezlashtirish zarur hamda shartdir;
- 8) Xitoy Xalq Respublikasi bilan imzolangan 50 milliard dollarlik va boshqa xorij hamda mahalliy investorlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga kiritilgan va kiritilayotgan sarmoyalardan (investitsiyalardan) samarali foydalanish uchun, sarmoya kiritgan sarmoyachilar, banklarning mas'ul-lari tomonidan mablag'lardan maqsadli, o'z muddatida shaffof foydanishlikni doimiy nazoratga olishni tashkil etish.
- 9) Mahsulot olishda: ot go'shti va qimiz yetishtirish. Ot go'shtidan noyob taomlar (qazi, qazi suyakli, qarta) va boshqa taomlar tayyorlashni, Biya sutidan qimiz tayyorlashni tashkil etish va eksport qilish imkoniyatlarini yaratish.
- 10) Qimiz sil kasalligini davolashda tabiat in'om etgan eng yaxshi dori sifatida bo'lganligi uchun hudud-larda savdo uylarini ochish.
- 11) Qo'shrabod va Nurobod tumanlarida mahalliy sanoat qorxonalari zaminida ot terisiga ishlov berish, undan mo'yna buyumlar tayyorlash sexlarini tashkil etish.
- 12) Yilqichilik Klasterlar faoliyatini tashkil etish hamda samarali faoliyat olib borishini ta'minlash uchun avvala, unda ishlaydigan xodimlar, ishchilar, ayniqsa iqtisodchi va buxgalterlarini, ya'ni mutaxassislarini nazari va amaliy jihatdan o'qitish, qayta malakasini oshirishga e'tiborni qaratish kerakdir.
- 13) Klasterlarni tashkil qilish bilan birga unda ishlaydigan ishchi-kadrlarni, menejerlarni, marketologlarni tayyorlash, xorij mamlakatlarida, jumladan, Xitoy va Meksika davlatlarida tajribalar orttirish bo'yicha malakaga va o'rganishga yuborish.

Foydalilanigan manbalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston. 2023.
2. O'zbekiston–2030 strategik dasturi, 2023-yil 11-sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 11.09.2023-yildagi PQ-300-son, "O'ZBEKISTON – 2030" Strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori (12.09.2023).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turini ommalashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 11-mart, PQ-5024-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish" to'g'risidagi Qarori, 2020-yil 26-mart, PQ4653-sonli.
6. Salamov I., Kazakova, Z.S., Nurmonov Sh.X. Menejment va marketing. Darslik. "Fan ziyosi " nashriyoti. T.-2023, 252 betli.
7. Salamov I., Jonibekov F., Kazakova Z., & Nazarova M. (2022). The Role of Investments in Ensuring the Economic Stability of Livestock and Prospective Opportunitiyes. INTERNATIONAL JOURNAL OF BIOLOGICAL ENGINEERING AND AGRICULTURE, 1(3), 1-4. Mejdunarodny nauchnyi jurnal № 7(100), chast 2 "Nauchnyi Fokus" noyabrya, 2023 201
8. Salamov I., Kazakova Z. S., Nazarova M. S., & Jonibekov F. B. (2022). Prospects for digitalization of order tables in infrastructure development in agriculture of the republic of Uzbekistan.
9. Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi va statistika boshqarmasining 2021–2022-yil yakunlari bo'yicha hisobotlari.
10. Mualliflarning ilmiy va amaliy tadqiqotlari hamda izlanishlari natijalari.
11. Salamov I., Jonibekov F.B., Nurmonov Sh.X. Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarning iqtisodiy-jitmoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari. O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi jurnali 2024-yil №2 son, 50-55 betlar.
12. Xolmirzayev D.X.q.x.f.d., professor ilmiy izlanishlari ma'lumotlari.
13. Internet saytlari:
www.gov.uz
www.lex.uz
www.publicfinancye.uz
www.statistics.uz



Yashi

IQTISODIYOT
Va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Fayziyev Oybek Raximovichning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

O'zbek tili muharriri: Ulug'bek Eshmuradov

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Rus tili muharriri: Abdimo'min Alikulov, i.f.d., professor

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Bobur Ochilov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodi materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027
Topshirildi: 10.04.2024-yil. Nashrga ruxsat etildi: 19.04.2024-yil.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o’tkazilgan.